



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (2)**



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
2-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI .....	12
<b>Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА .....	21
<b>Салимова Зиёда Рустамжон қизи</b>	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH .....	27
<b>Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	32
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	36
<b>Soyibova Matluba Ahmedboyevna</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	41
<b>M.O. Yo'ldoshova</b>	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH .....	45
<b>Anvar Deberdiyev</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI .....	49
<b>Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich</b>	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR .....	55
<b>Ishimova Mohinur Absalomovna</b>	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORII ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	61
<b>Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna</b>	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	67
<b>Iskanov Xoljigit Nurkosimovich</b>	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI .....	73
<b>Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	79
<b>Yuldashev Akmal Kiyomovich</b>	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH .....	83
<b>Abirova Nargizabonu</b>	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI .....	88
<b>Turayev Abduvohid Kuldashovich</b>	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
<b>Artiqova O'g'iljon Zafar qizi</b>	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	101
<b>Rustamov Zafar</b>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	107
<b>Metyakubov Azamat Djumanazarovich</b>	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH .....	111
<b>Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	116
<b>Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.</b>	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI .....	121
<b>Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
<b>Melibayev Sodir Adilovich</b>	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI .....	135
<b>Sheraliev Abbos Xolmuminovich</b>	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN .....	140
<b>Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov</b>	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI .....	147
<b>Yuldashev Adhamjon Axadjonovich</b>	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
<b>Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li</b>	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
<b>To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi</b>	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI .....	162
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	



# ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI

**Aripov Ulug'bek Bahodirovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
mustaqil izlanuvchi (PhD)

E-mail: [b.aripov@tsue.uz](mailto:b.aripov@tsue.uz)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-1073-274X>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada elektron tijoratni boshqarishda Big Data, sun'iy intellekt va raqamli logistika texnologiyalarining o'ri tahlil qilingan. Text-mining usuli asosida O'zbekistondagi yirik elektron platformalarda mijozlar qoniqishi hamda xizmat sifati o'rtasidagi nomutanosiblik aniqlanib, operatsion, shartnomaviy va reputatsion risklar baholangan. Tadqiqot natijalari elektron tijorat tizimida risklarni erda aniqlash, ularni samarali boshqarish hamda boshqaruv qarorlarini optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** elektron tijorat, Big Data, sun'iy intellekt, text-mining, mijozlar qoniqishi, risklar tahlili, raqamli logistika.

**Abstract.** This article analyzes the role of Big Data, artificial intelligence, and digital logistics technologies in e-commerce management. Using the text-mining method, the study identifies the imbalance between customer satisfaction and service quality on major e-commerce platforms in Uzbekistan and evaluates operational, contractual, and reputational risks. The findings highlight the importance of early risk identification, effective risk management, and the optimization of managerial decision-making processes in e-commerce.

**Key words:** e-commerce, Big Data, artificial intelligence, text-mining, customer satisfaction, risk analysis, digital logistics.

**Аннотация.** В данной статье проанализирована роль технологий больших данных, искусственного интеллекта и цифровой логистики в управлении электронной коммерцией. На основе метода text-mining выявлен дисбаланс между удовлетворённостью клиентов и качеством обслуживания на крупных электронных платформах Узбекистана, а также оценены операционные, договорные и репутационные риски. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости раннего выявления рисков в электронной коммерции, повышения эффективности их управления и оптимизации управленческих решений.

**Ключевые слова:** электронная коммерция, Big Data, искусственный интеллект, text-mining, удовлетворённость клиентов, анализ рисков, цифровая логистика.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlari jadallashib, deyarli barcha sohalarga chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo tizimlarida sezilarli sifati o'zgarishlari yuz bermoqda. Ayniqsa, elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sifatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, biznes imkoniyatlarini kengaytirish hamda iste'molchilar talabini samarali qondirishda muhim o'rin tutmoqda. Shu sababli elektron tijoratni samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Elektron tijorat an'anaviy savdo shakllaridan farqli ravishda raqamli platformalar, ma'lumotlar bazalari va elektron to'lov tizimlariga asoslanadi. Bu esa boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlar va moslashuvchan strategiyalarni qo'llash zaruratini yuzaga keltiradi. Elektron tijoratning samarali faoliyati davlat miqyosida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bandlikni ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Boshqaruv samaradorligi, avvalo, normativ-huquqiy muhitning takomillashganligi, soliq va bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilganligi hamda raqamli infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Internet



tarmoqlari sifati, mobil aloqa tizimlari va fintex yechimlarining rivojlanishi savdo jarayonlarini tezlashtirish bilan birga, moliyaviy nazorat mexanizmlarini ham yanada mustahkamlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron tijoratda risklarni tadqiq etishga oid ilmiy adabiyotlarda, asosan, iste'molchi ishonchi, idrok etilgan risk, xavfsizlik, maxfiylik, tranzaksiya ishonchligi hamda moliyaviy barqarorlik omillariga alohida e'tibor qaratilgan. Pavlou elektron tijoratni qabul qilish jarayonida ishonch va risk omillarini texnologiyani qabul qilish modeli bilan integratsiyalab, onlayn xarid qarorlarida risk markaziy omillardan biri ekanligini asoslab bergan [10].

Bir guruh olimlar — Kim, Ferrin va Rao [11], shuningdek Zhang T. [12] elektron tijoratda ishonch, idrok etilgan risk va ularning shakllanish omillari xaridorlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslagan. Forsythe va hammualliflar esa onlayn xarid jarayonlarida moliyaviy, mahsulot, vaqt va maxfiylik risklarini baholash uchun maxsus o'lchov shkalasini ishlab chiqqan.

Shuningdek, Alrawad va hammualliflar [1] SEM (Structural Equation Modeling) usuli asosida onlayn xarid risklarini baholab, demografik farqlar riskni idrok etish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini qayd etgan. Guru va hammualliflar esa AHP (Analytic Hierarchy Process) yondashuvi orqali onlayn xarid jarayonlaridagi risklarni ustuvorlik darajasi bo'yicha tartiblashga erishgan [5-10].

So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar moliyaviy risklarni sun'iy intellekt, Big Data, LSTM va edge computing texnologiyalari yordamida prognozlashga yo'naltirilmoqda. Jumladan, Chen va hammualliflar [3] elektron tijorat korxonalarida moliyaviy risklarni FA-PSO-LSTM modeli asosida prognozlash mexanizmini ishlab chiqqan [11].

Ushbu risklarni to'lov xavfsizligi, firibgarlik holatlari, moliyaviy barqarorlik, logistika samaradorligi hamda platformalar ishonchligi kabi omillar bilan kompleks tarzda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida elektron tijorat platformalaridagi risklarni baholashda text-mining texnologiyasi asosida ochiq ma'lumotlar, foydalanuvchi sharhlari va mobil ilovalar reytinglari semantik jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, Big Data va sun'iy intellekt yondashuvlari asosida elektron tijoratdagi operatsion, logistika va reputatsion risklar baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron tijoratni boshqarishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beruvchi Big Data texnologiyalari iste'molchilar xulq-atvorini chuqur o'rganish, talabni prognozlash, marketing strategiyalarini optimallashtirish hamda boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalari yordamida elektron savdo platformalarida individual takliflarni shakllantirish, narxlarni dinamik boshqarish, logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish mumkin.

Elektron tijoratni boshqarish tizimida logistika va ta'minot zanjirlarining raqamlashtirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetkazib berish jarayonining barcha bosqichlarini raqamli monitoring qilish, ombor xo'jaligini avtomatlashtirish hamda yetkazib berish muddatlarini optimallashtirish elektron tijorat samaradorligini oshiradi. Bu borada raqamli logistika platformalari, GPS va IoT texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv jarayonlarining shaffofligi va tezkorligini ta'minlaydi. Natijada iste'molchilar ishonchi mustahkamlanib, elektron savdoga bo'lgan talab kengayadi [12].

Elektron tijoratda ixtisoslashgan sanoat standartlari va xizmat ko'rsatish me'yorlarining yetarli darajada shakllanmaganligi sababli platforma va savdo turlarining aniq chegaralari mavjud emas. Shu bois amaliyotda do'kon turlarini ifodalashda turli nomlardan foydalanish uchray turadi. Ushbu kichik toifalarni, avvalo, "taklif etilayotgan tovarlar assortimenti" mezonini asosida tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qiymat iste'molchining mahsulot xarid qilish orqali qondirmoqchi bo'lgan ehtiyojida namoyon bo'ladi. Ikkinchi daraja esa savdo xizmatlarining asosiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bular savdo xizmatining majburiy elementlari bo'lib, mahsulotning o'zi hamda asosiy savdo xizmatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur elementlarsiz savdo xizmatining asosiy funksiyalarini to'liq amalga oshirish qiyinlashadi. Majburiy elementlar savdo usullari va shakllari, shuningdek, zarur xizmat ko'rsatish amaliyoti bilan belgilanadi.

Elektron tijoratda mahsulot xarid qilish jarayoni ma'lum algoritm asosida shakllanadi. Mazkur jarayonning bosqichma-bosqich modeli 1-jadvalda keltirilgan algoritm asosida ifodalanadi (1-jadval).

1-jadval. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar elektron tijoratda risklar tahlili<sup>1</sup>

№	Internet do'kon	Faoliyati	O'tkazilgan tekshiruvlar
1	ZoodMall	Turli murojaatlar kelib tushgan	12 ta holatda oferta tekshirilgan
2	Olcha.uz	Turli murojaatlar kelib tushgan	32 ta holatda oferta tekshirilgan
3	Uzum Market	Turli murojaatlar kelib tushgan	27 ta holatda oferta tekshirilgan
4	Elmakon.uz	3 ta holatda oferta tekshirilgan	Qonuniy talablarga moslashtirildi (UZ24)

O'zbekiston elektron tijorat bozori so'nggi yillarda jadal rivojlanib, mijozlarning onlayn xarid tajribasi hamda ishonch darajasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, mijozlar qoniqishi va xizmat sifati bilan bog'liq risklarni aniqlash hamda ularni baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqsadda ochiq veb-manbalardan olingan ma'lumotlar, davlat organlari hisobotlari hamda mobil ilovalar reytinglari asosida text-mining usulidan foydalangan holda tahlil amalga oshirildi.

Text-mining usuli yordamida ochiq veb-manbalar — ommaviy axborot vositalari saytlari, davlat organlari hisobotlari, mobil ilovalar reytinglari va foydalanuvchi sharhlari kontenti semantik-chastotali tahlil qilindi.

Jumladan, Uzum Market platformasi misolida mobil ilovaning yuqori reytingi (4,8/5) hamda ko'plab ijobiy foydalanuvchi fikrlari mijozlar tajribasining ommaviy ravishda ijobiy qabul qilinayotganini anglatadi. Biroq davlat organlari axborotlarida ushbu platforma bo'yicha murojaat va shikoyatlar ulushining yuqoriligi operatsion yuklama, logistika jarayonlaridagi uzilishlar hamda sotuvchilar faoliyati ustidan nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat elektron tijorat tizimida operatsion, logistika va reputatsion risklarning mavjudligini namoyon etadi (2-jadval).

2-jadval. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar elektron tijoratda risklar tahlili<sup>2</sup>

№	Internet do'kon	Ochiq ma'lumotlar	Izoh
1.	Uzum Market	brend tan olinishi 91%	Mijozlar tan olishi ko'p holatlarda qoniqishga teng deb qaralishi mumkin (uzum.com)
2.	ZoodMall	shikoyatlar haqida ma'lumot	to'g'ridan-tog'ri qoniqish % yo'q (Kun.uz)
3.	Texnomart	shikoyatlar va hal etish %	to'g'ridan-to'g'ri qoniqish % yo'q (Kun.uz)
4.	Olcha.uz	reyting ma'lumotlar topilmadi	—
5.	Asaxiy.uz	shikoyatlar ko'rsatilgan	to'g'ridan-to'g'ri qoniqish % yo'q (UZ24)

Shu nuqtayi nazardan, text-mining tahlili elektron tijorat subyektlari uchun risklarni erta aniqlash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish hamda mijozlar tajribasini samarali boshqarishda muhim empirik instrument vazifasini bajaradi.

Shuningdek, 2024-yilda Qo'mitaga kelib tushgan 1 328 ta murojaat orasida Uzum Market eng yuqori ulushni (39,6 %) tashkil etgani, undan keyingi o'rinlarda esa Alif Shop, ZoodMall va Asaxiy.uz platformalari qayd etilgani kuzatilgan. Ushbu ma'lumotlar elektron savdoda sifat nazorati tizimini yanada takomillashtirish, mahsulot xarakteristikalarini haqidagi ma'lumotlarning to'liq va ishonchli taqdim etilishini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Monitoring natijalari ayrim yirik platformalarda, jumladan Uzum Market va Olcha platformalarida kontrafakt mahsulotlar bilan bog'liq holatlar aniqlanganini ham ko'rsatdi. Ular orasida mashhur brendlar logotiplari tushirilgan mahsulotlar mavjud bo'lgan.

Shu bilan birga, ayrim murojaatlarning ijobiy hal etilgani ham qayd etilgan bo'lib, bu elektron savdo tizimida javobgarlik va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarining shakllanib borayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, text-mining tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron savdo platformalarida mijozlar qoniqishi faqat ijobiy reytinglar bilan emas, balki xizmat ko'rsatishning barcha bosqichlarida yuzaga keladigan kamchiliklar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Mazkur risklar elektron tijorat ishtirokchilarining strategik boshqaruvi va bozor infratuzilmasini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron tijoratda risklar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur sohadagi asosiy tahdidlar moliyaviy xavfsizlik, tranzaksiyalar ishonchliligi, ma'lumotlar maxfiyligi hamda operatsion uzilishlar bilan bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida aniqlanishicha, iste'molchilarning onlayn savdoga bo'lgan ishonchi bevosita idrok etilgan risk darajasiga bog'liq bo'lib, bu omil elektron tijorat bozorining rivojlanish sur'atlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda, jumladan O'zbekistonda, elektron tijorat infratuzilmasining hali to'liq shakllanib ulgurmagani mavjud risklarning ta'sirini kuchaytirishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, risklarni samarali boshqarish uchun ularni identifikatsiya qilish, baholash, monitoring qilish va minimallashtirish bosqichlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Zamonaviy texnologiyalar — sun'iy intellekt, Big Data va prognozlash modellaridan foydalanish risklarni oldindan aniqlash va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, elektron tijoratning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish, elektron to'lov tizimlari xavfsizligini mustahkamlash, logistika va xizmat ko'rsatish jarayonlarining shaffofligini oshirish hamda foydalanuvchilar ishonchini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alrawad, M., Lutfi, A., Alyatama, S., Al Khattab, A., Alsoboa, S. S., Almaiah, M. A., Ramadan, M. H., Arafa, H. M., Ahmed, N. A., Alsyoud, A., & Al-Khasawneh, A. L. (2023). Assessing customers' perception of online shopping risks: A structural equation modeling-based multigroup analysis. *Journal of Retailing and Consumer Services*, 71, 103188. DOI: 10.1016/j.jretconser.2022.103188.
2. Ariffin, S. K., Mohan, T., & Goh, Y.-N. (2018). Influence of consumers' perceived risk on consumers' online purchase intention. *Journal of Research in Interactive Marketing*, 12(3), 309–327. DOI: 10.1108/JRIM-11-2017-0100.
3. Chen, X., Long, J., Lin, L., & Lin, B. (2023). E-commerce enterprises financial risk prediction based on FA-PSO-LSTM neural network deep learning model. *Sustainability*, 15(7), 5882. DOI: 10.3390/su15075882.
4. Cong, X. (2021). Research on financial risk management of e-commerce enterprises in the era of big data. *Proceedings of the 7th International Conference on Frontiers of Educational Technologies*, 195–199. DOI: 10.1145/3473141.3473248.
5. Dai, Y. N., Viken, G., Joo, E., & Bente, G. (2018). Risk assessment in e-commerce: How sellers' photos, reputation scores, and the stake of a transaction influence buyers' purchase behavior and information processing. *Computers in Human Behavior*, 84, 342–351. DOI: 10.1016/j.chb.2018.02.038.
6. Forsythe, S., Liu, C., Shannon, D., & Gardner, L. C. (2006). Development of a scale to measure the perceived benefits and risks of online shopping. *Journal of Interactive Marketing*, 20(2), 55–75. DOI: 10.1002/dir.20061.
7. Guru, S., Nenavani, J., Patel, V., & Bhatt, N. (2020). Ranking of perceived risks in online shopping. *DECISION*, 47(2), 137–152. DOI: 10.1007/s40622-020-00241-x.
8. Huang, Z. (2017). A study of e-commerce transaction risk assessment model in mobile internet. *Journal of Electronic Commerce in Organizations*, 15(4), 1–10. DOI: 10.4018/JECO.2017100101.
9. Kim, D. J., Ferrin, D. L., & Rao, H. R. (2008). A trust-based consumer decision-making model in electronic commerce: The role of trust, perceived risk, and their antecedents. *Decision Support Systems*, 44(2), 544–564. DOI: 10.1016/j.dss.2007.07.001.
10. Pavlou, P. A. (2003). Consumer acceptance of electronic commerce: Integrating trust and risk with the technology acceptance model. *International Journal of Electronic Commerce*, 7(3), 101–134. DOI: 10.1080/10864415.2003.11044275.
11. Kim, C., Tao, W., Shin, N., & Kim, K. S. (2010). An empirical study of customers' perceptions of security and trust in e-payment systems. *Electronic Commerce Research and Applications*, 9(1), 84–95. DOI: 10.1016/j.elerap.2009.04.014.
12. Zhang, T., Lu, C., & Kizildag, M. (2018). Banking "on-the-go": Examining consumers' adoption of mobile banking services. *International Journal of Quality and Service Sciences*, 10(3), 279–295. DOI: 10.1108/IJQSS-07-2017-0067.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>